

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEVA GULCHEXRA ABDUXALILOVNA**

**SORBSIYA JARAYONIDA N,S-SAQLAGAN QATTIQ  
EKSTRAGENTLARDA BA’ZI OG‘IR METALL IONLARINING  
KOMPLEKS HOSIL QILISHI**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
химическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical  
sciences**

**Abdullayeva Gulchexra Abduxalilovna**

Sorbsiya jarayonida N,S-saqlagan qattiq ekstragentlarda ba’zi og‘ir metall  
ionlarining kompleks hosil qilishi . . . . . 3

**Абдуллаева Гулчехра Абдухалиловна**

Комплексообразование некоторых тяжелых металлов на N,S-  
содержащих твердых экстрагентах в процессе сорбции .. . . . 23

**Abdullaeva Gulchekhra Abdukhalilovna**

Complex formation of some heavy metals on N,S-containing solid  
extractive agents in the sorption process . . . . . 43

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ  
List of published works. . . . . 47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03  
RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEVA GULCHEXRA ABDUXALILOVNA**

**SORBSIYA JARAYONIDA N,S-SAQLAGAN QATTIQ  
EKSTRAGENTLARDA BA’ZI OG‘IR METALL IONLARINING  
KOMPLEKS HOSIL QILISHI**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K549 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ik-kimyo.nuu.uz](http://www.ik-kimyo.nuu.uz)) va “ZiyoNET” axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Daminova Shahlo Sharipovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Umarov Baqo Bafoyevich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Ibragimova Mavluda Ro‘zmetovna**  
PhD, katta ilmiy xodim


**Yetakchi tashkilot:**

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “16” noyabr soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99824) 246-02-24; E-mail: [ilmiy\\_kengash@nuu.uz](mailto:ilmiy_kengash@nuu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 119 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: +99871 227-12-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “30” oktyabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil “29” oktyabrdagi 27- raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**Z.A.Smanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, k.f.d., professor  
**N.X.Qutlimurotova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor  
**Z.Ch. Kadirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., k.i.x.

## KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda chiqindilarni utilizatsiya qilish va oqava suvlarda og‘ir metallar konsentratsiyasini kamaytirishning samarali usullarini ishlab chiqish muammolariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda og‘ir metallarni suvdan samarali tozalashning ko‘plab usullari, jumladan, kimyoviy cho‘ktirish, ion almashinish, adsorbsiya, membranali filtrlash va elektrokimyoviy texnologiyalar taklif qilingan. Chiqindilarni tozalash usullari orasida sorbsiya soddaligi, atrof-muhitga ta’siri pastligi va iqtisodiy samaradorligi bilan boshqa barcha usullardan ustun turadi. Sorbsiya sezilarli miqdorda qo‘shimcha mahsulotlarning shakllanishiga olib kelmaydi va ishlatilgan sorbent yana qayta qo‘llanilishi mumkin.

Jahonda samaradorligi yuqori va kompleks hosil qiluvchi xususiyatlarga ega qattiq ekstragentlarni sintez qilish sharoitlarini optimallashtirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Neft-kimyو sanoatining chiqindi mahsuloti bo‘lgan ishlatilgan alyuminiy oksidi katalizatori katta o‘ziga xos sirt maydoni, yuqori adsorbsion qobiliyati, mexanik mustahkamligi va past haroratli modifikatsiyasi tufayli istiqbolli adsorbent hisoblanadi. Biroq ba’zi og‘ir metallar kationlari ishlatilgan alyuminiy katalizatorida yomon adsorbsiyalanadi. Shuning uchun alyuminiy oksidi yuzasini kislorod, azot va oltingugurt kabi donor atomlarini o‘z ichiga olgan funksional guruhlar bilan modifikatsiyalash zarur bo‘ladi. Shu munosabat bilan ishlatilgan alyuminiy oksidi katalizatoriga organik ligandlarni nokovalent kiritish usullarini ishlab chiqishga, metall ionlarini eritmalardan sorbsion ajratishga, sorbsiya jarayonida sorbent fazasida ketadigan fizik-kimyoviy jarayonlarga, metall komplekslarini hosil bo‘lish mexanizmlarini aniqlash jarayonlarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyo asosida yangi turdagi sorbentlar ishlab chiqish va ularni kimyo hamda metallurgiya sanoatiga joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada metall ionlari uchun selektiv kompleks hosil qiluvchi sorbentlarni sintez qilish sohasida ilmiy yutuqlarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida<sup>1</sup> “Mahalliy sanoat tarmoqlarining eksport salohiyatini mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalangan holda yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan”. Shu munosabat bilan impregnirlangan organik ligandlar asosida selektiv sorbsion materiallarni olish, ulardan metall ionlarini konsentrlash va ajratish uchun foydalanish, shuningdek, hosil bo‘lgan sorbsion materiallarning kompleks hosil qilish xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son Farmoni, 2018-yil 25-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kimyo

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3983-son, 2019-yil 3-apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4265-son, 2021-yil 13-fevraldagi "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4992-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yuqori samarali qattiq ekstragentlarni olish, ularning sorbsion va fizik-kimyoviy xossalari aniqlash, sorbent fazasida metall komplekslarini hosil qilish mexanizmini o'rnatish sohasida Troshkina I.D., Ravindhranath K., Xia Z., Mahmoud M.E., Santos J.S., Cortina J. L., Warshawsky A., Kumar M., Kubishev S.S., Soylak M. kabi olimlar ma'lum hissa qo'shdilar. Hokbany N. A., Jammaz I.A., Tadjarodi A., Blinova L., Mohamad S., Kausikisankar P., Plotek M. kabi olimlarning ishlari qator d-metallarning 2-merkaptobenzotiazol, 1-(2-piridilazo)-2-naftol, difeniltiokarbazon bilan yangi kompleks birikmalarining sintezi va tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlashni o'rganishga bag'ishlangan.

O'zbekistonda koordinatsion birikmalar kimyosi sohasida akademiklar N.A.Parpiyev, B.T.Ibragimov, professorlar X.T.Sharipov, T.A.Azizov, X.X.To'rayev, A.A.Shabilalov, B.V. Umarov, Sh.A. Kadirova, Z.Ch. Kadirova, A.B.Ibragimov ilmiy maktablari olimlari faoliyat olib bormoqda. Akademiklar M.A.Askarov, S.Sh. Rashidova, A.T. Djalilov, professorlar U.N.Musayev, T.M.Boboyev, M.G. Muxamediyev, Z.A. Smanova, O.N.Ro'zimurodov, D.A. Gafurova, N.T. Kattayev, D.J.Bekchanov va boshqa olimlar tomonidan kimyoviy texnologiya, tibbiyot va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida foydalaniladigan sorbentlarning yangi avlodlari yaratilgan hamda ularning samaradorliklari o'rganilgan. Ammo modifikatsiyalangan sorbentlar bo'yicha keng ko'lamli materiallar bo'lishiga qaramasdan, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasidagi ishlatilgan alyuminiy oksidi katalizatori asosida impregnirlangan qattiq sorbentlarni olish, ularning rux, kadmiy va qo'rg'oshin ionlariga nisbatan sorbsion, kompleks hosil qilish xususiyatlari tadqiq qilinmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq "Aromatik va geterotsiklik birikmalar asosida yangi biologik faol kompleks birikmalar sintezi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qattiq fazali ekstraksiya jarayonida og'ir metall ionlarining N, S-tutgan organik ligandlar bilan kompleks hosil qilish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Zn(II), Cd(II) va Pb(II) ionlarining 2-merkaptobenzotiazol, piridilazonaftol va difeniltiokarbazon bilan koordinatsion birikmalarining sintez qilish, tarkibi, tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy usullarda o'rganish;

kvant-kimyoviy usullar yordamida 2-merkaptobenzotiazol, piridilazonaftol va difeniltiokarbazon bilan Zn(II), Cd(II) hamda Pb(II) metall komplekslarining elektron tuzilishi, energiya va geometrik parametrlari hamda reaksiya qobiliyatini hisoblash;

ishlatilgan alyuminiy oksidi katalizatori asosidagi noorganik tashuvchida N,S – tutgan ligandlarni fizik immobilash orqali sorbentlar olish;

fizik immobilangan sorbentlarning reaksiya qobiliyatini kvant-kimyoviy usullar bilan hisoblash;

Zn(II), Cd(II) va Pb(II) ionlarining olingan fizik immobilangan sorbentlarda sorbsion xossalari aniqlash;

olingan sorbentlarni sanoat sharoitida qo'llash uchun laboratoriya sinovidan o'tkazish, og'ir metall ionlarini aniqlash va ajratish uchun olingan sorbentlarni qo'llash mumkin bo'lgan sohalarini bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** rux, kadmiy, qo'rg'oshin ionlari, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasining ishlatilgan alyuminiy oksidi katalizatori, 2-merkaptobenzotiazol (MBT), difeniltiokarbazon (Dtz), 1-(2-piridilazo)-2-naftol (PAN), 1,10-fenantrolin (Phen) hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** rux, kadmiy va qo'rg'oshinning MBT, PAN, Dtz asosidagi komplekslarining tarkibi, tuzilishi, xossalari, tashuvchilarning fizik modifikatsiyasi, sorbent fazada og'ir metal ionlarining kompleks hosil qilishi, jarayonlarning sorbsiyasi, desorbsiyasi, kinetikasi va termodinamikasi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot usullari sifatida IQ-, raman-spektroskopiya, element analizi, rentgen fazali (RFA), rentgen strukturali (RSA), differensial-termik (DTA) analizlar, induktiv bog'langan plazmalı optik emission spektrometri (ICP-OES), energo-dispersion analiz va skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM-EDX), suyuq azot bo'yicha adsorbsiya, kvant kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Zn(II), Cd(II), Pb(II)ning MBT, PAN, Dtz bilan metal-ligand 1:2 nisbatda bo'lgan 10 ta kompleks birikmalari qattiq holatda olingan;

element analizi, differensial-termik, RSA, IQ-, raman spektroskopiya usullari yordamida sintez qilingan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari hamda tetraedr va oktaedr shaklidagi kompleks hosil bo'lish jarayonida metall ionlarining koordinatsiyalanish qurshovi qonuniyatlari aniqlangan;

ilk bor tarkibi  $[Cd(MBT)_4]$ ,  $[Zn(MBT)_2Phen]$  bo'lgan kompleks birikmalarining kristall tuzilishlari asoslangan;

azot, oltingugurt tutgan ligandlar MBT, PAN, Dtz ni noorganik tashuvchi alyuminiy oksidga nokovalent immobillash natijasida kompleks hosil qiluvchi sorbsion sistemalar olingan;

olingan sorbentlarda Zn(II), Cd(II), Pb(II) ionlari sorbsiyasining optimal sharoitlari tanlangan;

sorbent fazasida hosil bo'lgan komplekslar tarkibi va tuzilishining Zn(II), Cd(II), Pb(II) ionlari sorbsiyasiga ta'siri hamda desorbsiya xossalari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

MBT, PAN, Dtz asosida Zn(II), Cd(II), Pb(II) koordinatsion birikmalarini sintez qilishning sharoiti yaratilgan;

[Zn(MBT)<sub>2</sub>Phen] tarkibli kompleks birikmaning fazoviy tuzilishi va barcha kristallografik kattalıkları aniqlangan hamda Cambridge Crystallographic Data Center xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan;

metallarning tabiatiga qarab, alyuminiy oksidi asosida MBT, PAN, Dtz bilan nokovalent immobillangan ma'lum xossalarga ega bo'lgan qator yangi qattiq ekstragentlar olingan va ularning sorbsion xususiyatlari Zn(II), Cd(II), Pb(II) ionlariga nisbatan sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqotning zamonaviy, yuqori informatsion fizik-kimyoviy usullari (IQ, ICP-OES, DTA, RFA, RSA, SEM-EDX, suyuq azot bo'yicha adsorbsiya, kvant-kimyoviy hisoblash usullari) qo'llanilganligi bilan asoslanadi. Statistik qayta ishlash usullaridan foydalanib, sorbsiya kinetikasi va termodinamikasining zamonaviy nazariyalari asosida xulosalar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ligandlar va komplekslarning elektron, fazoviy tuzilishini, MBT, PAN, Dtz tarkibi va donor atomlarining koordinatsiyalanish qobiliyatini, shuningdek, impregnirlangan sorbentlar xossalari, tarkibi, tuzilishi, mikrotuzilishi orasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq qilishni, qattiq ekstragentlarning sorbsion va kinetik xossalari hamda Zn(II), Cd(II), Pb(II) ionlarining sorbsiya mexanizmlarini aniqlash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati [Zn(MBT)<sub>2</sub>Phen] tarkibli kompleks birikmaning kristallografik ma'lumotlari Cambridge Crystallographic Data Center (Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasi)ga kiritilganligi, olingan immobillangan kompleks hosil qiluvchi sorbentlar asosida yuqori sorbsion sig'imga ega sorbsion tizimlar respublika gidrometallurgiya korxonalarida chiqindi eritmalarini va sanoat oqava suvlarini metall ionlarining mikromiqdorlaridan ajratish hamda tozalash uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qattiq fazali ekstraksiya jarayonida og'ir metal ionlarining N,S-tutgan organik ligandlar bilan kompleks hosil qilish xossalari aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

[Zn(MBT)<sub>2</sub>Phen] tarkibli kompleks birikmaning rentgen tuzilish tahlili natijalari Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (The Cambridge Structural Database, <https://www.ccdc.cam.ac.uk/conts/retrievhg.html> CCDC depozit raqami 2388092). Natijada, o'xshash yangi kimyoviy birikmalarni sintez

qilish va tuzilishini tavsiflash imkonini bergan;

qattiq ekstragentlarni olinish usullari va ularning sorbsion hamda kompleks hosil qilish xossalari Yaponiyaning Kyushi universitetining maqsadli ilmiy tadqiqotlarida foydalanilgan (Yaponiya Kyushi universitetining 2024-yil 17-sentyabrdagi ma'lumotnomasi). Natijalar suvni tozalash uchun yangi sorbsion materiallarni olishga xizmat qilgan;

$Al_2O_3$ -Dtz,  $Al_2O_3$ -MBT,  $Al_2O_3$ -PAN sorbentlari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ texnologik eritmalaridan og'ir metallar ionlarini ajratib olish jarayoniga joriy etilgan ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ ning 2024-yil 6-sentyabrdagi №23/01-01-07/525-son ma'lumotnomasi). Natijada og'ir metallar ionlarini ajratish jarayonida an'anaviy qo'llaniladigan importli sorbentlarga nisbatan olingan sorbentlar alternativ sifatida ko'rib chiqish imkonini bergan;

olingan qattiq ekstragentlarning kompleks hosil qilish va sorbsion xossalarini o'rganish natijalari PZ-2017092435 "Xorazm viloyati sharoitida dorivor o'simliklarni yetishtirish va ular asosida biologik faol qo'shimchalar yaratish" loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining 2024 yil 22 fevraldagi 4/1255-427-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 2-merkaptobenziazol, difeniltiokarbazon, piridilazonaftollarning og'ir metall tuzlari bilan metall kompleks birikmalarini sintez qilish orqali dorivor o'simliklar xom ashyosi tarkibidagi og'ir metallar ( $Zn^{2+}$ ,  $Cd^{2+}$ ,  $Pb^{2+}$ ) miqdorini aniqlashga yordam qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 22 ta, jumladan, 8 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot obyektlari va predmetlari berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Alyuminiy oksidi asosida modifikatsiyalangan materiallarning tuzilishi, olish usullari va ularning qo'llanilishi**" deb

nomlangan **birinchi bobida** alyuminiy oksidining tuzilishi va xossalari, organik reagentlarni alyuminiy oksidi fazasiga kiritish usullari, alyuminiy oksidi asosidagi qattiq sorbentlarning xossalari va ulardan metall ionlarini sorbsion ajratishga doir adabiyotlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, metall ionlarining MBT, Dtz va PAN bilan koordinatsion birikmalarining sintezi, tuzilishi va xossalari ham batafsil yoritilgan.

Adabiyotlardagi manbalarda mavjud bo‘lgan tendensiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, og‘ir metallar komplekslarini sintez qilish, shuningdek, N,S saqlagan organik ligandlar bilan impregnirlangan qattiq ekstragentlarni olishning qulayligi, sorbsiya selektivligi, iqtisodiy samaradorligi va ekologik havfsizligi tufayli dolzarbligicha qolmoqda.

Dissertatsiyaning **“Sorbsion eksperimentlar metodologiyasi. Zn(II), Cd(II) va Pb(II) koordinatsion birikmalari sintezi”** ikkinchi bobida qo‘llanilgan asbob va reagentlarning tavsiflari keltirilgan, Zn(II), Cd(II), Pb(II) ning MBT, Dtz, PAN bilan kompleks birikmalari sintezi, alyuminiy oksidi ko‘rinishidagi ishlatilgan katalizatorlar asosida qattiq ekstragentlarni olish, statik usulda sorbsion eksperimentlarni o‘tkazish metodikasi bayon qilingan. Sintez qilingan komplekslarning tarkibi element, rentgenfluyuessent, SEM-EDX usullari yordamida tahlil qilingan. Zn(II), Cd(II) va Pb(II)larning MBT, Dts, PAN bilan sintez qilingan kompleks birikmalari 1-sxema bo‘yicha ekvimolyar nisbatda olib borildi.



**Sxema.1. Kompleks birikmalarning sintezi**


Zn(II), Cd(II) va Pb(II) ionlari sorbsiyasi uchun tashuvchi sifatida Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasidagi alyuminiy oksidi koʻrinishidagi ishlatilgan katalizator qoʻllanilgan. Ishlatilgan alyuminiy oksidi katalizatori gʻovakli kulrang granula boʻlib, katta oʻziga xos sirt maydoni hamda gʻovak diametriga ega, yuqori mexanik mustahkamligi, termik barqarorligi va shimdirish jarayonida inertligi tufayli koʻp miqdordagi organik ligandlarni oʻziga joylashtirish uchun mos keladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Tashuvchining kimyoviy tarkibi (ogʻirlik boʻyicha%) va xossalari**

Kimyoviy tarkibi va xossalari	Ishlatilgan katalizator
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	70.90
SiO <sub>2</sub>	0.11
CaO	0.15
Na <sub>2</sub> O	1.33
Cl	2.08
Uchuvchan qism (L.o.I.)	25.43
Zichlik (g/cm <sup>3</sup> )	2.67
Zarrachalarning oʻrtacha oʻlchami (μm)	27.52
Nisbiy yuza (m <sup>2</sup> /g)	153,45
Gʻovaklar oʻlchami (nm)	4-9
Gʻovaklar hagmi, (ml/g)	0,94

Boshlangʻich moddaning diffraktogrammasi 1-rasmda koʻrsatilgan boʻlib, unda amorf faza va koʻplab kristalli fazalar kuzatildi. Mineral tarkibi, asosan, γ-alyuminiy oksididan iborat ekanligi aniqlandi. Ishlatilgan katalizator namunasining SEM mikrofotografiyasi maydalangan katalizator zarrachalarining amorf yuzaga ekanligini tasdiqlaydi (2-rasm). Alyuminiy oksidi chiqindilari oʻrtacha kattaligi 100 nm dan kam boʻlgan agregatlangan sterjen shaklidagi nanokristallardan iborat. EDS spektriga asoslanib, asosiy elementlar alyuminiy, uglerod, kislorod, natriy va xlor ekanligi isbotlandi.




**1-rasm. Ishlatilgan katalizatorning rentgenogrammasi.** ■

- γ-alyuminiy oksid; ● - beomit;  
 ● - galit

Ishlatilgan alyuminiy oksidi katalizatorining DTA egri chizigʻida 100 °C dagi endotermik choʻqqi suvning yoʻqolishi bilan bogʻliq, 330 °C dagi ekzotermik choʻqqi esa uchuvchan va organik birikmalarni ajralib chiqishiga mos keladi (3-rasm). 1196 °C da kuzatilgan endotermik choʻqqi α-Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> hosil boʻlishi bilan bogʻliq.


Tashuvchini reagentlarning spirtli eritmalar bilan impregnirlash orqali sorbsion materiallar olindi. Zn(II), Cd(II) va Pb(II) ionlarining sorbsiyasi uchun organik reagentlar sifatida 2-merkaptobenzotiazol (MBT), difeniltiokarbazon (Dtz) va 1-(2-piridilazo)-2-naftol (PAN) ishlatildi. Olingan sorbentlar quyidagicha

belgilandi: Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-Dtz, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-PAN va Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-MBT.



**2-rasm. Ishlatilgan Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> katalizatorining mikrotuzilishi, xaritalash va element tahlili.**

“Rux, kadmiy va qo‘rg‘oshinning koordinatsion birikmalarini tadqiq etish” deb nomlangan uchinchi bobida Zn(II), Cd(II) va Pb(II) larning MBT, Dtz va PAN bilan kompleks birikmalarining tuzilishi hamda fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish natijalari keltirilgan.



**3-Rasm. Ishlatilgan katalizatorning DTA-TG egri chizig‘i**

GaussView 6.0.16 va Gaussian09 dasturiy paketlari (DFT/B3LYP metodi doirasida ligandlar uchun 6-31G (d,p), komplekslar uchun LanL2DZ bazislarini qo‘llab) yordamida polifunksional ligandlarning elektron tuzilishlari hamda Zn(II), Cd(II) va Pb(II) ionlarini koordinatsiyalovchi elektronodonor markazlari aniqlandi. MBT va Dtz ikkita tautomer shaklda mavjud bo‘lishi mumkinligini hisobga olib, ikkala holat uchun ham kvant kimyoviy hisoblashlar o‘tkazildi. Barcha ligandlar atomlari bo‘yicha samarali

zaryadlarning taqsimlanishi bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.


**2-Jadval**

**Ligand donor atomlarida hisoblangan elektron zichliklar**

N <sup>o</sup>	Ligand	$\delta_q N^1$	$\delta_q N^2$	$\delta_q N^3$	$\delta_q N^4$	$\delta_q O$	$\delta_q S^1$	$\delta_q S^2$
1	MBT(tiol)	-0,311	-	-	-	-	0,270	0,068
2	MBT(ton)	0,259	-	-	-	-	0,312	-0,161
3	Dtz(tiol)	-0,152	-0,347	-0,252	-0,202	-	-0,007	-
4	Dtz(tion)	-0,277	-0,388	-0,162	-0,138	-	-0,152	-
5	PAN	-0,249	-0,261	-0,456	-	-0,563	-	-


MBT ning tiol shaklidagi zaryad qiymatlarini tahlil qilish, molekulaning

donor atomlari bo'yicha samarali zaryadlarning taqsimlanishi molekulaning tiazol halqasining azot atomida yuqori manfiy qiymatga ega ekanligini ko'rsatdi (-0,311) (4-rasm). MBT ning tion shaklida azot atomi molekulada katta musbat zaryadni o'z ichiga olgan vodorod bilan bog'langan (+0,259). Tion shakldagi ekzotsiklik oltingugurt manfiy zaryadga (-0,161), tiolda esa musbat zaryadga (+0,068) ega.



**4-rasm. MBT ning geometrik tuzilish, MEP va zaryad taqsimoti (tion va tiol).**

Dtz ning tion shaklidagi zaryad qiymatlari tahlil qilinganda, eng yuqori manfiy zaryad iminoguruhning azot atomlarida (-0,277 va -0,388) va N=N bog'ning azot atomlarida (-0,162 va -0,138) joylashganligini ko'rish mumkin. Imino guruhining azot atomida musbat elektron zichligining to'planishi kuzatiladi, bu vodorod atomini metall bilan almashtirish imkoniyatini ko'rsatadi. Biroq fenil halqaga yaqin joylashgan oltingugurt atomi (-0,152) va N=N guruhining azot atomi (-0,162) yuqori manfiy elektron zichlikka ega hamda bu atomlar kompleks hosil qiluvchini bog'lash uchun sterik jihatdan qulay holatga ega. Yuqori asosiy holat va quyi qo'zg'aluvchan holatlarning chegara molekulyar orbitallarining (MO) energiya qiymatlari hisoblandi. PAN<Dtz<MBT qatorida energetik tirqish ortadi, bu 2-merkaptobenzotiazol molekulasining eng yuqori kimyoviy barqarorligi va eng past reaksiya qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. 5-rasmda MBT molekulasi MO larining energiya darajalarining diagrammasi ko'rsatilgan.




**5-rasm. MBT molekulasining chegara molekulyar orbitallari (a) HOMO, (b) LUMO, (c) molekulyar orbitallarning energiyalari (Xartri).**


Zn<sup>2+</sup>, Cd<sup>2+</sup> va Pb<sup>2+</sup> larning MBT, Dtz va PAN bilan kompleks birikmalari uchun ham geometriyani optimallashtirish amalga oshirildi (6-rasm). Komplekslarning mumkin bo'lgan strukturasi optimallashtirish Dtz va MBT ligandlari bo'lgan komplekslar uchun tetraedr tuzilish, PAN bilan esa oktaedr tuzilish termodinamik jihatdan eng qulay ekanligini ko'rsatdi.

RST yordamida katen-(tetrakis(μ2-merkaptobenzotiazol-S,S,N)-dikadmiiy [Cd(MBT)<sub>4</sub>]<sub>n</sub> va bis(1,3-benzothiazole-2-thiolato)-(1,10-phenanthrolin) rux [Zn(MBT)<sub>2</sub>Phen] kompleks birikmalarning kristal va molekulyar tuzilishi aniqlandi. [Cd(MBT)<sub>4</sub>]<sub>n</sub> birikmasining kristallari monoklinik singonoyaga (C2/c)


tegishli.



[Zn(MBT)<sub>2</sub>]




[Zn(PAN)<sub>2</sub>]



[Zn(Dtz)<sub>2</sub>]

**6-rasm. Koordinatsion poliedrning geometrik parametrlari.**

7-rasmdan ko‘rinadiki, markaziy atom to‘rtta kristallografik jihatdan mustaqil ligandlar tomonidan koordinatsiyalangan bo‘lib, [010] yo‘nalish bo‘ylab zigzag zanjirlarini hosil qiladi. Ikkita azot har biri taxminan oktaedrik kadmium atomiga sis-





**7-rasm. katen-(tetrakis(μ<sub>2</sub>-merkaptobenzotiazol-S,S,N)-dikadmium tuzilishi**



holatda (2,28 va 2,33 Å) koordinatsiyalanadi, ligandlarning birining ekzosiklik oltingugurt atomlari qisqa Cd-S1 Cd-S2 (2,55 va 2,60 Å) masofalarida ion bog‘ orqali koordinatsiyalangan.

Shuningdek, qo‘shni kadmium atomlari bilan ham polimer zanjiri bo‘ylab qarama-qarshi yo‘nalishda donor-akseptor bog‘lari orqali koordinatsiyalangan. 8-rasmda “b”

va “c” o‘qlari bo‘ylab kompleks birikma [Cd(MBT)<sub>4</sub>]<sub>n</sub> ning kristall taxlami ko‘rsatilgan.




**8-rasm. b va c o‘qlari bo‘ylab [Cd(MBT)<sub>4</sub>]<sub>n</sub> ning kristall taxlami.**



**9-rasm. [Cd(MBT)<sub>4</sub>]<sub>n</sub> ning Hirshfeld sirtining d<sub>norm</sub> ko‘rinishi va ikki o‘lchovli barmoq izi grafi.**


Kompleksning Xirshfeld sirt tahlili va ikki o‘lchovli barmoq izi grafigi natijalari shuni ko‘rsatadiki, kristalining H...H o‘zaro ta’siri  $[\text{Cd}(\text{MBT})_4]_n$  kristalining taxlanishiga eng ko‘p hissa qo‘shadi va u 30,3 % ga teng. Keyingi o‘rinni C...H/H...C, S...H/H...S o‘zaro ta’sirlari egallaydi, ular mos ravishda 25,3 % va 24,6 % ni tashkil etadi (9-rasm).

$[\text{Zn}(\text{MBT})_2\text{Phen}]$  kompleks birikmaning kristallari monoklinik singoniyaga ( $P2/c$ ) tegishli. Kompleks birikmaning strukturasi ikkita MBT molekulasini oltingugurt atomi orqali kompleks hosil qiluvchiga monodentat, fenantrolin molekulasini esa azot atomlari bilan bidentat koordinatsiyalangan (10-rasm). Zn-S bog‘ uzunligi ( $2.2987(7) \text{ \AA}$ ) Zn-N bog‘ uzunligiga ( $2.093(2) \text{ \AA}$ ) qaraganda biroz kattaroq. Strukturadagi eng kichik burchak  $\text{N}2-\text{Zn}1-\text{N}2^i$  ga tegishli bo‘lib, u  $80.72^\circ$  ga va eng katta burchak esa  $\text{C}8-\text{N}2-\text{Zn}1$  ga tegishli bo‘lib,  $129.67^\circ$  ga teng.




**10-rasm.  $[\text{Zn}(\text{MBT})_2\text{Phen}]$  kristall tuzilishi va a o‘q bo‘yicha taxlami.**

Ushbu kompleks birikmaning Hirshfeld sirt tahlili va ikki o‘lchovli barmoq izi grafigi natijalari shuni ko‘rsatadiki, C...H/H...C (40.5 %), S-H/H-S (26.5 %), H...H (17 %) o‘zaro ta’siri kristalning taxlanishiga eng ko‘p hissa qo‘shadi (11-rasm).



**11-rasm.  $[\text{Zn}(\text{MBT})_2\text{Phen}]$  ning Hirshfeld sirtining  $d_{\text{norm}}$  ko‘rinishi va ikki o‘lchovli barmoq izi grafigi.**



**10-Rasm.  $[\text{Zn}(\text{MBT})_2]$  ning difraktogrammasi.**

Ligandlar va ularning komplekslarining tuzilishi rentgen fazali tahlil yordamida ham o‘rganildi, difraktogrammalarda har xil intensivlikdagi cho‘qqilarning mavjudligi aniqlandi (10-rasm). Jumladan, ligand MBT difraktogrammasida 13.67 (47 %), 14.19 (100 %) 18.13 (49 %), 22.89 (61 %), 26.01


(50 %) va 28 (31 %) da cho‘qqilar kuzatildi. Liganddan farqli o‘laroq, [Zn(MBT)<sub>2</sub>] kompleksida 30,16 (64 %), 31,63 (100 %) va 44,08 (47 %) da nisbatan intensiv cho‘qqilar kuzatildi.

### 3-Jadval

#### Kompleks birikma [Pb(MBT)<sub>2</sub>]ning kristallografik ma’lumotlari va parametrlari

Parametr	Kattalik	Parametr	Kattalik
Struktura	[Pb(MBT) <sub>2</sub> ]	$\mu(\text{CuK}\alpha)$ , mm <sup>-1</sup>	1.530
Molekulyar formula	C <sub>14</sub> H <sub>8</sub> N <sub>2</sub> PbS <sub>4</sub>	Kristall o‘lchmi, mm	0.22×0.13×0.18
Molekulyar massa	539.66	T, °K	296
Singoniya	Triklinik	$\theta$ , °grad.	2,12; 27,00
Faziviy guruh	A1	Interval h,k,l	999:-99; 999:-99; 999:-99
a, Å	11.30730	Refleks	5072
b, Å	22.61450	Sindirish ko‘rchatkichi	1563
c, Å	22.61450	R <sub>int</sub>	0.71073
$\alpha, \beta, \gamma$ , deg	103; 110; 102	F <sup>2</sup> ≥2σ(F <sup>2</sup> ) kriteriy	R <sub>1</sub> =0.056
V, Å <sup>3</sup>	5782.729	Parametr	3526
Z	2	Muvofiqlik mezonlari (F <sup>2</sup> )	504
D <sub>x</sub> , g/cm <sup>-3</sup>	0.310	R <sub>1</sub> , wR <sub>2</sub> (I>2σ(I))	R <sub>1</sub> =0.0662, wR <sub>2</sub> =0.1562

Ligand komplekslarning rentgenogrammlari taqqoslanganda izostruktur emasligi aniqlandi. Tadqiqot davomida FullProf dasturi yordamida rentgen fazali tahlil difraktogrammlarini qayta ishlash orqali [Pb(MBT)<sub>2</sub>], [Zn(Dtz)<sub>2</sub>] va [Zn(PAN)<sub>2</sub>] komplekslarining kristall tuzilishi aniqlandi. Olingan komplekslarning strukturaviy tahlili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining “Qattiq jismlar fizikasi” laboratoriyasida o‘tkazildi. [Pb(MBT)<sub>2</sub>] kompleksining kristallografik xarakteristikallari va rentgen fazali tahlil natijalari 3-jadvalda keltirilgan. 11-rasmda keltirilgan strukturadan ko‘rinib turibdiki, kompleksda qo‘rg‘oshinning koordinatsion soni 4 ga teng bo‘lib, u ikki ligand molekulasini tomonidan C-S guruhining oltingugurt va endotsiklik azot atomlari orqali bidentant koordinatsiyalanadi hamda koordinatsion poliedrning geometriyasi tetraedr.




11-rasm. [Pb(MBT)<sub>2</sub>] kompleksi molekulasining tuzilishi va taxlami.

Molekuladagi atomlar orasidagi bog‘ uzunliklari tahlil qilinganda, Pb(1)-S(1) (2,4555 Å) va Pb(1)-S(3) (2,4913 Å) orasidagi bog‘larning uzunligi deyarli teng ekanligi aniqlandi, Pb(1)-N(1) (2.1800 Å) va Pb(1)-N(2) (2.2129 Å) bog‘ uzunligi bilan solishtirganda biroz uzunroq. Bog‘ burchaklari tahlil qilinganda S(1)-Pb(1)-

N(1) burchak ( $74.02^{\circ}$ ) S(3)-Pb(1)-N(2) burchakdan ( $68.21^{\circ}$ ) qisman katta ekanligi aniqlandi.

Ligandlarni koordinatsion markazlarining markaziy atomga bog'lanish xususiyatini aniqlash uchun Zn(II), Cd(II) va Pb(II) larning Dtz, MBT, PAN bilan kompleks birikmalarning IQ-spektrlari olindi.  $[\text{Zn}(\text{MBT})_2]$ ,  $[\text{Cd}(\text{MBT})_4]$  va  $[\text{Pb}(\text{MBT})_2]$  komplekslarining IQ spektrlarida tegishli ligandlarga nisbatan siljishi, yutilish chiziqlarining intensivligi va shaklida o'zgarish kuzatiladi.  $1367\text{-}1387\text{ cm}^{-1}$  sohada qayd etilgan C=N guruhi yutilish chizig'ining xarakterli siljishi ( $\Delta=69\text{-}89$



**12-rasm. Kompleks  $[\text{Cd}(\text{MBT})_2]$  derivatpgrammasi.**


$\text{cm}^{-1}$ ) bu metal ioninig azot atomi orqali koordinatsiyalanganligini ko'rsatadi. C-S bog'ining valent tebranish chiziqlari quyi chastotalar tomon siljigan va  $744\text{-}753\text{ cm}^{-1}$  sohada kuzatiladi. Erkin ligand spektridan farqli o'laroq, quyi chastotali  $605\text{-}613\text{ cm}^{-1}$  hamda  $426\text{-}427\text{ cm}^{-1}$  sohada mos ravishda M-S va M-N bog'larining tebranishlari bilan bog'liq bo'lgan chiziqlar paydo bo'lgan bo'lib, bu esa geterotsiklik ligandning oltingugurt va

azot atomlari bilan bidentat koordinatsiyasini tasdiqlaydi. Shunday qilib, ligand MBT ning funksional guruhlari bergan yutilish sohalarining o'zgarishiga asoslanib, metall ionlari bilan koordinatsiya C-S guruhining oltingugurt atomlari va tiazol halqasining azot atomlari orqali sodir bo'ladi, deb taxmin qilish mumkin.

Olingan kompleks birikmalarning termik barqarorligi va tarkibini aniqlash uchun differensial termik tahlil o'tkazildi (12-rasm).  $[\text{Cd}(\text{MBT})_2]$  kompleksining termogrammasida  $75^{\circ}\text{C}$  sohadagi endo-effekt 2,28 % massa yo'qotilishiga to'g'ri keladi, bu esa namunada namlik mavjudligini ko'rsatadi. Endotermik effekt va fazaviy o'tishlar  $250\text{-}570\text{ }^{\circ}\text{C}$  harorat oralig'ida kuzatildi. Bu o'zgarish namuna massasining 58,7 % parchalanishiga to'g'ri keladi va kompleks tarkibidan ikki mol ligandning to'liq ajralib chiqishiga mos keladi. Keyingi massa yo'qotilishi  $570\text{-}900\text{ }^{\circ}\text{C}$  oralig'ida sodir bo'ladi, termolizning oxirgi mahsuloti sifatida kadmii oksidi hosil bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Zn(II), Cd(II), Pb(II) ning qattiq ekstragentlarda sorbsiyalanish mexanizmini o'rganish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida olingan sorbentlarning fizik-kimyoviy va sorbsion xossalari o'rganilgan.


Past haroratli  $\text{N}_2$  adsorbsiyasi izotermasini (77 K da) o'rganish alyuminiy oksidli ishlatilgan katalizatorning nisbatan katta g'ovak hajmga ( $V_i$ ) va nisbiy sirt yuzasiga ( $S_{\text{BET}}$ ) ega ekanligini ko'rsatdi. Impregnirlangan sorbentlarda g'ovaklik sezilarli darajada kamaydi, metall ionlari sorbsiyasidan keyin esa deyarli yo'qolgan. SEM tasvirlari shuni ko'rsatadiki, sorbsiyadan so'ng sorbent yuzasida metall komplekslari ko'rinishidagi og'ir metall ionlarining to'planishi natijasida sorbent yuzasi bir jinsli bo'lmay qoladi hamda g'ovak struktura butunlay yo'qoladi (13-rasm).




### 13-rasm. Pb<sup>2+</sup> ionlari sorbsiyasidan keyin Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-Dtz sorbentning mikrostrukturasi, xaritalash va element tahlili.

Sorbsiyadan oldin va keyin qattiq ekstragentlarning EDS tahlili metall ionlari sorbentda bir tekis taqsimlanganligini hamda impregnirlangan sorbent granularining ichki va tashqi qismlarida adsorbsiyalanishi mumkinligini ko'rsatdi.

